

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH VA SERVIS MUTAXASSISLIKLARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Ustababayeva Xafiza Artikovna

Bosh mutaxassis, Professional ta'limni rivojlantirish instituti

Annotatsiya: Oxirgi yillarda kasbiy ta'limga innovatsion yondashuvlar asosida, ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning muhim belgisi sifatida kompetensiyaviy yondashuv asosida barcha o'rta bo'g'in mutaxassisliklar qatori xizmat ko'rsatish va servis yo'nalishida ham kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlari jadal amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish va servis yo'nalishi bo'lajak o'rta bo'g'in mutaxassislarini kompetensiyaviy yondashuv asosida mehnat bozori talablariga mos kadr sifatida tayyorlash mexanizmini rivojlantirish asoslari xususida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kasbiy faoliyatga tayyorlash, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy ta'lim, kompetentlik, o'rta bo'g'in, kasb, mutaxassislik, kasbiy ta'lim muassasalari, o'quvchi, o'qitish metodi, elektron ta'lim resurslari.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Hozirgi kunda Prezidentimizning tashabbuslari bilan mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, yosh avlodning har jihatdan yetuk, jismonan sog'lom, intellektual salohiyatli, ma'nan barkamol ulg'ayishi uchun, shuningdek yoshlarni qilgan mehnati, erishgan yutuqlariga yarasha rag'batlantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan kasbiy ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilib, ta'lim sifati oshib, jamiyatning turli sohalari uchun yetuk o'rta bo'g'in mutaxassislar tayyorlanmoqda. Kasbiy ta'limda kasb-hunarga o'qitish jarayonida, kompetent yondashuv keng joriy etishmoqda. Kompetent yondashuv talabadan bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga




muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li - kasbiy ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi [1].

Xalqaro tajribaga ko'ra pedagoglarning kasbiy kompetentligi, jumladan, ta'lim jarayonini, amalga oshirishning eng maqbul metodlarini (multi-level interactive education), samarali modellarini ishlab chiqish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish va amalga oshirishning metodik ta'minotini takomillashtirishga alohida ehtiyoj tug'ilmogda. Mazkur jihat kasbiy ta'limda o'rta bo'g'in mutaxassislarini kasbiy kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'lim shakllari va metodlarini modernizatsiyalash, kasbiy kompetentlikni shakllantirish usullarini, ilmiy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, kasbiy ta'limda o'rta bo'g'in mutaxassislarini kasbiy kompetentligini shakllantirishning zamonaviy metodik tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlarini belgilash, o'quv materiallarini mazmunan takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda [2].

Mazkur zaruriyatdan kelib chiqib, kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari joriy etish, kasbiy fanlarni o'qitish metodikasi va didaktik vositalarini ishlab chiqish talab etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida xizmat korsatish va servis mutaxassisliklarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning eng muhim yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- ✚ kasbiy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini aniqlash orqali uning didaktik taminotini takomillashtirish;
- ✚ kasbiy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida hamda interfaol o'qitish metodlarini qo'llash orqali bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tuzilmaviy metodik modelini ishlab chiqish;






- ✚ kasbiy ta'limda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiluvchi elektron ta'lim resurslari hamda o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish va amaliyotga joriy etish;
- ✚ kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy ta'limda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash modelini takomillashtirish va amaliyotda qo'llash orqali samaradorligini tajribasnov jarayonida aniqlash.

Kasbiy ta'limning "Xizmat ko'rsatish va servis" mutaxassisliklarida o'qitish jarayonini zamon talablariga mos ravishda tashkil etish maqsadida uning yangi metodologiyasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni joriy etish siyosiy, umumdavlat va didaktik ahamiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Kasbiy ta'limning yangi paradigmasini shakllantirishning o'zagini kompetensiyalar atamalarida ifodalangan o'quv natijalari tashkil etadi. Asosiy e'tibor Xizmat ko'rsatish va servis" mutaxassisliklarida o'quv jarayonining o'ziga emas, balki ta'lim oluvchilar tomonidan ko'rsatiladigan kompetensiyalarda ifodalangan natijalarni baholashga qaratiladi. Ta'lim natijalarini aniqlash ta'lim dasturini ishlab chiqishdagi birinchi qadamdir. Shu bilan birga, ta'lim natijalarini aniqlash barcha keyingi bosqichlar uchun asosiy jarayon bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim natijalarining aniq ta'rifisiz ta'lim mazmunini aniqlash imkonsizdir. Shundan kelib chiqib tadqiqotimizda natijaga yo'naltirilgan ta'lim tushunchasiga ishchi ta'rif berdik va tadqiqotlarimizda ushbu ta'rifga tayandik. Natijaga yo'naltirilgan ta'lim – bu o'quv jarayonini aniq, oldindan belgilangan maqsad va natijalarga erishishga qaratilgan pedagogik yondashuv bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishdir. Bu ta'lim turida o'quv jarayoni va metodlari shu tarzda tashkil etiladiki, o'quvchilar olgan bilimlarini hayotiy va kasbiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish imkoniga ega bo'ladilar. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokiga, mustaqil fikrlashga va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga undaydi, shuningdek, ularda mustaqillik va innovasion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi [3].

Kasbiy ta'lim muassasalarining "Xizmat ko'rsatish va servis" mutaxassisliklarida tahsil oluvchi bo'lajak o'rta bo'g'in mutaxassislarga ta'lim berishda virtual ta'lim texnologiyalarini keng ko'lamda tatbiq yetish bugungi kunning





global tendensiyalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, kasbiy ta'lim muassasalarini xizmat ko'rsatish va servis ta'limida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu muammolarning yechimi har bir o'quvchining individual ta'lim olishini ta'minlash va keyingi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan o'quv resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratishdan iborat.

O'quv jarayoniga virtual ta'lim texnologiyalarini joriy yetishni takomillashtirish uchun dastlab yelektron ta'limni joriy yetishga oid tadqiqotchilarning ilmiy-uslubiy adabiyotlarini tahlil qilish va ular ko'rsatib o'tgan pedagogik va psixologik muammolari hamda yechimlarini o'rganish lozim deb topib, bunda quyidagi turkum muammolar borligi aniqlandi:

- yaratiladigan dasturiy vositalarga pedagogik va psixologik jihatdan yondashilmayotganligi;
- professor-o'qituvchilarda kompyuter savodxonligining yetarli darajada yemasligi;
- zamon talabiga moslashtirilgan yelektron o'quv-metodik majmualarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- professor-o'qituvchilarda pedagogik dasturiy vositalarni qo'llash tajribasining yetishmasligi;
- masofaviy ta'limdan foydalanish uchun zamonaviy dasturiy vositalar hamda ularni qo'llashga oid ilmiy ishlanmalarning yetishmasligi;
- yagona metodologik o'qitish talablari va tizimining mavjud yemasligi;
- kompyuterning pedagogik dasturiy vositalarini o'quv jarayoniga qo'llash metodikasining to'liq ilmiy asoslanmaganligi [4].

Xulosa. Kompetensiyaviy yondashuv asosida xizmat ko'rsatish va servis mutaxassisliklarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quvchilarning maxsus fanlarga bo'lgan qiziqishini va texnik fikrlashini yanada oshirishni ta'minlash zarur hamda mustaqil ta'lim vazifalariga virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga oid topshiriqlarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda o'quvchilarni mustaqil izlanishga yo'naltirish imkoniyati paydo bo'ladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ergasheva, B. (2022). Talabalarining pedagogik moderinizatsiya sharoitida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Science and innovation, 1(B7), 401-405.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909-sonli qarori. - www.lex.uz
3. Sharofaddinov Sh.A. Ishlab chiqarish ta’limi ustasining kasbiy pedagogik kompetentligini rivojlantirish // Professional ta’lim tizimida islohotlar: malaka oshirish ta’lim turida innovatsion g‘oyalar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2020 yil 10 noyabr. – Toshkent: PIKHTBHPKQTUMOI, 2020. – B. 365-371.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. diss. avtoref. - T.: 2007. - 37 b

